

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Mustafa Said Arslon, , filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Ne'matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

I.M.RAXMANOVA

Buxoro davlat universitetining
Pedagogika instituti magistri

Davron RO‘ZIYEV

Buxoro davlat universiteti
musiqa ta’limi kafedrası professori v.b.,
pedagogika fanlari nomzodi

MUSIQA TA’LIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Maqolada musiqiy pedagogik texnologiyalarning hozirgi kundagi amaliyotdagi ahamiyati, musiqiy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar yaxshi xabardor bo‘lishi, ta’lim jarayonida ularni qo‘llab dars o‘tishlariga muhim e’tibor berishlari, o‘qitish jarayonini oldindan loyihalash va darsni texnologik xaritasini ishlab chiqish bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa ta’limi, musiqiy pedagogik texnologiya, loyihalash, texnologik xarita.

В статье рассматривается значение музыкально-педагогических технологий в современной практике, необходимость для всех педагогов хорошо знать музыкально-педагогические технологии, уделять особое внимание их использованию в образовательном процессе, предварительно проектировать учебный процесс и разрабатывать технологическую карту урока.

Ключевые слова: музыкальное образование, музыкально-педагогическая технология, проектирование, технологическая карта.

The article discusses the importance of musical and pedagogical technologies in modern practice, the need for all teachers to have a good knowledge of musical and pedagogical technologies, pay special attention to their use in the educational process, pre-design the educational process and develop a technological map of the lesson.

Key words: music education, musical and pedagogical technology, design, technological map.

Kirish. Ta’lim nazariyasi va amaliyotining o‘quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 1950-yillarda birinchi urinishlar qilib ko‘rilgan. Ular o‘z ifodasini an’anaviy o‘qitish uchun mo‘ljallangan majmualar texnik vositalarining yaratilishida namoyon qiladi. Hozirgi vaqtda “pedagogik texnologiya” ta’lim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralмай, balki bu ta’limiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo‘li orqali materiallarni tuzish hamda qo‘llash, shuningdek, qo‘llanilayotgan usullarni baholash orqali ta’lim jarayoni tamoyillarini aniqlash va eng maqbul yo‘llarini ishlab chiqishni aniq maqsad qilib olganligidadir. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy san’at namunalari, jumladan, musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda.

Asosiy qism. Ma’lumki, bugungi kunda musiqa ta’limi tizimida “Ustoz - shogird” an’analaridan foydalanish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida, shu jumladan, musiqa ta’limining ham barcha bo‘g‘inlarida katta e’tibor bilan yondashish kerak. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’dilaganidek: “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”.

Mamlakatimizda yangilangan, jahon andozalariga mos keladigan musiqiy ta’lim mazmuni o‘z-o‘zidan emas, balki, ilg‘or pedagog-olimlar, uslubiyotchi, kompozitor va bastakorlar, musiqa fani o‘qituvchilari va musiqa fanini o‘qitish borasida jahon miqyosida orttirilgan yutuqlari orqali takomillashib boradi. Shu bois ham musiqa ta’limning hozirgi bosqichida yosh avlod ta’lim-tarbiyasi uchun mas’uli jodkor o‘qituvchilarni shakllantirish vazifasini asosiy o‘ringa qo‘ymoqda.

Mavjud tajribalar shuni ko‘rsatadiki, musiqa ta’limi mazmuni qanchalik yangilanmasin, mukammal o‘quv dasturlari, darsliklar yaratilmasin, o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining pedagogik mahorati, yangi musiqaiy ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishi va ulardan ta’lim jarayonida unumli va o‘rinli foydalana olishiga bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi kunda musiqa ta’limi jarayonida eng asosiy sifat bosqichida belgilangan vazifalarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha chuqur o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlat hujjatlarida ko‘zda tutilganidek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida musiqiy ta’lim jarayonini ham texnologiyalashtirish hamda axborot tizimi bilan ta’minlash jadal rivojlanmoqda. Musiqa fani va ta’limining

moddiy, uslubiy bazasi mustahkamlanib, o'quv-uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy vositalar mukammalashib o'quv jarayoniga tatbiq qilinmoqda.

Ma'lumki, didaktikaning predmeti o'rgatish, o'rganish hamda ta'lim mazmunidan iborat. Bu uchala komponentdan birortasini musiqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida e'tiborda tutmaslik uning mazmunini yo'qqa chiqaradi. Musiqani o'rgatish ham, o'rganish ham ularning oxirgi natijasi ham musiqaiy ta'lim-tarbiya mazmuniga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida har xil musiqiy mavzularni o'ziga xos usullar bilan o'rganish uning o'ziga xosligi va mazmunidan kelib chiqadi, bu esa, asosan, o'rganishni tashkil etuvchi, ya'ni o'rgatuvchiga (musiqa fani o'qituvchiga) bog'liq.

Har qanday fanni, shu jumladan, musiqa fanini o'qitish jarayonida ham o'quvchilarni faollashtiradigan, ularni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fikrlovchi, mushohada qiluvchi, o'z fikrlarini bildira oluvchi o'quvchi sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi – bu o'qituvchidir. O'qituvchi o'zi va o'rganuvchi o'quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo'lgan o'qitish usullari, yo'llari, shakllari, vositalaridan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi. O'qituvchi, shuningdek, ilg'or musiqiy pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, musiqa ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon musiqa pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Musiqiy pedagogik texnologiya hozirgi kunda eng rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida bo'lgani kabi bizning respublikamizda ham musiqiy ta'lim jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq ishlarda ustuvor o'rinni egallamoqda. Shuning uchun ham musiqiy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar yaxshi xabardor bo'lishi, ta'lim jarayonida ularni qo'llab dars o'tishlariga muhim e'tibor berilmoqda. Bu aynan musiqiy ta'lim-tarbiya rivojining obyektiv qonuniyatlariga mos bo'lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan musiqaiy ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari shunga mos ravishda takomillashib borishi bilan bog'liqdir.

Muhokamalar va natijalar. Fanlardan dars beruvchi barcha o'qituvchilar singari, musiqa fani o'qituvchisi ham dars ishlanmasini yozish bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirishi zarur. Bu jarayonda o'qituvchi musiqa fanining o'ziga xos xususiyatlarini, sinf xonasi sharoitini, musiqa tingalsh faoliyatini ta'minlovchi texnik vositalar, musiqa asboblarning mavjudligini inobatga olishi kerak. Shuningdek, sinf o'quvchilarining barcha imkoniyati, ehtiyojlarini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini nazarda tutishi kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin bo'ladi.

E'tiborli tomonlarda biri shundaki, o'qituvchi o'quvchilarni har bir musiqiy lahvaning mazmun-mohiyatini tushunib olishga da'vat etishi kerak. O'qituvchi tomonidan har bir darsda taqdim etiladigan musiqiy materialni oldindan yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun, birinchi navbatda, bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi lozim. Shundan so'ng esa bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzudan o'rin egallagan musiqa materiallari, fanning xususiyati, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritaning tuzish pedagogik talab nuqtayi nazaridan, musiqa fanining talabidan kelib chiqib tuzish oson ish emas, albatta. Chunki buning uchun o'qituvchi nafaqat musiqa fanini o'qitishning umumiy talablarini puxta bilishi, balki pedagogika, psixologiya, adabiyot, tasviriy san'at fanlari xususiyatlarini ham yaxshi tushungan bo'lishi, shuningdek, xususiy metodika, pedagogika va axborot texnologiyalaridan ham xabardor bo'lishi kerak.

Har bir musiqa darsining rang-barang, qiziqarli, mazmunli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq. Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi, fantaziyasi va ixtiyoriga bog'liq. Har bir musiqa mavzusi uchun texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni materiallari, masalan, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash jarayonlari yaxlit holda aks etgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritada aniq belgilangan musiqiy maqsad va maqsadni shakllantirishga yo'naltirilgan vazifalar hamda kafotlangan natija to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchi tomonidan darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi. O'qituvchi tomonidan musiqa fanining har bir mavzusi bo'yicha tuzilgan texnologik xarita unga fan xususiyatini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga, belgilangan maqsaddan tortib, erishiladigan natijasini ko'ra olishiga yordam beradi.

Hozirgi sharoitda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari taraqqiyotga mos maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi modelli tizimga, ya'ni ta'limni texnologiyalashtirishga aylanib bormoqda. Shu tufayli fan sohalarining barchasida bo'lgani kabi musiqiy ta'limda ham yangi texnologiyalarga e'tibor kuchayib bormoqda. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, tabaqalashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlari qatori musiqa predmeti bo'yicha

hamo‘qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda musiqiy ta‘lim mazmunini milliy negizida shakllantirish, milliy musiqiy merosdan to‘laqonli foydalanish, xalq kuy-qo‘shiq, doston, mumtoz va maqom hamda ularning ta‘sirida yaratilgan zamonaviy musiqalar vositasida o‘quvchi yoshlarni milliy qadryatlarimizni teran anglaydigan, vatanga, o‘z xalqiga, tilimizga, dinimizga, tariximizga, san‘atimizga ongli munosabatda bo‘ladigan va unga vorislik qila oladigan ma‘nan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad va vazifa sifatida ko‘rsatilgan.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar musiqa san‘atini butun nafasati bilan o‘rganishlari, idrok etishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqa tinglash, tahlil qilish, jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash, nazariy bilimlarni o‘zlashtirish (musiqa savodxonligi) raqsga tushish, bolalar cholg‘u asboblari chalish va musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish masalalarini shakllantirish musiqiy ta‘limning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Xulosa. Umumiy tarzda xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida loyihalash va pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni taqazo etadi. Ular juda xilma-xildir. Bular yangi interfaol usullar va ta‘lim metodlari hamda hozirda dars jarayonida qo‘llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar shular jumlasidandir. Ta‘kidlash lozimki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va loyihalash, o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglardan keng foydalanilsa, o‘quvchilarda aqliy, ijodiy va mustaqil fikrlash shakllanadi. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarini oshirishga keng yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Sharipova G.M., Asamova D.F., Xodjayeva Z.L. Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. –Toshkent, 2014.
2. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
3. Yo‘ldoshev Sh., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –Toshkent: “Fan”, 2001-yil.
4. Ro‘ziyev D.Y. Musiqiy ijrochilik mahorati. Pedagogik mahorat. 6-son, 2019. 260-263-b.
5. Ro‘ziyev D.Y. Musiqa ta‘limi texnologiyasining ba‘zi masalalari. Pedagogik ta‘lim. –Toshkent, 2007-№ 1. b. 57-58.
6. Ro‘ziyev D.Y Musiqa ta‘limida o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi. “Madaniyat va ta‘lim: Davr muloqoti” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Buxoro, 2015. b. 521-523.